
TUMAN HOKIMI BOZORDAGI NARX-NAVO BILAN TANISHDI



Bugun Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov Qumtepa mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "Dehqon bozori" MChJda bo'ldi.

Tuman rahbari bozordagi va oziq-ovqat mahsulotlari do'konlaridagi narx-navo bilan tanishib, sotuvchilar hamda xaridorlar bilan suhbatlashdi. Shuningdek, ularga yaratilgan sharoitlarni o'rgandi.

Aholiga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari narx-navolarini asossiz oshirish holatlarini oldini olish yuzasidan mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-09-08 15:54:04